



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

МАВЗУСИДАГИ
КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

№15
30 апрель

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 15-ҚЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
15-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН
КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN 15-MULTIDISCIPLINARY
ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND
PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2020

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Rahimova Sohibaxon Basirovna "SO'Z LATOFATI" XUSUSIDA SO'Z.....	11
2. Toshbo'riyeva Sevara Shavkat qizi The role of audio- visual aids in teaching English.....	13
3. Mahmudova Noila Mansurjon qizi SO'ZLARINING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	15
4. Abdulatipova Shoxista, Abdulatipov Abdurauf TEACHING WRITING SKILLS AT SCHOOLS.....	17
5. Abdumadjidova Dilnoza Ibrohim qizi BORROWING AS A SOURCE OF STRUCTURAL ELEMENTS IN ENGLISH.....	19
6. Aziz Ahmad Aminiy SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI NUTQIDA G'ALLACHILIKKA OID SO'ZLAR.....	21
7. Dilfuza Bekbo'tayeva, Muqaddasxon Tojiyeva WHAT ARE THE ESSENTIAL INGREDIENTS FOR EFFECTIVE TEACHING AND EFFECTIVE LEARNING ?.....	24
8. Choriyeva Madina YOSHLAR O'RTASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOVLANTIRISH.....	25
9. Ergasheva Umida Anorbekovna O'QUVCHILARDA IMLO SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING BESH USULI.....	26
10. Farmonova Naimaxon INTERRELATION OF LANGUAGE AND CULTURE IN THE ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL ASPECTS OF UZBEK AND ENGLISH PROVERBS.....	28
11. G'aybullayeva Dildora Fayzulla qizi INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ATOQLI OTLAR BILAN YASALGAN FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK O'XSHASHLIKLARI VA FARQLARI.....	30
12. Yo'ldoshova Guldona Ollaberganovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA "MAQOLLARNI TO'LDIR" VA "DAVOM ETTIR" METODLARIDAN FOYDALANISH.....	32
13. Iminova Manzuraxon Sattarovna HOZIRGI O'ZBEK TILINING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	34
14. Irgasheva Nilufar Nurmatovna OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI XUSUSIDA.....	36
15. Isommiddinova Kibriyo Qurbonovna FONETIKA BO'LIMINI O'RGATISHDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH.....	38
16. Feruza Isoqova DINIY SO'ZLAR EKVIVALENTINING TARJIMADA BERILISHI.....	40
17. Janabaeva Shyryn Dawletyar qizi THE ORGANS OF SPEECH AND THEIR FUNCTIONS.....	44
18. Ali Kaljanov FREQUENCY OF HOMONYM MEANINGS.....	45
19. Mamatova Kamolatxon Azizovna O'QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ENG MUHIM OMILLARI.....	47
20. Mirzayeva Feruza Zokirjonovna ONA TILI MAZMUNINI YANGILASHNING ZARURIYATI.....	49
21. Mirzakulova Feruza TEACHING RECEPTIVE SKILLS.....	51
22. Muhammadjonova Difuza A'zamjon qizi BADIY TAHLILNING AHAMIYATI.....	53



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ATOQLI OTLAR BILAN YASALGAN FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK O'XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

G'aybullayeva Dildora Fayzulla qizi
O'zDJTU o'qituvchisi
Telefon: +998946812393
dildoragaybullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarning semantik o'xshashliklari va farqlari haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: frazeologik sinonimiya, antonimiya, polisemiya, omonimiya.

Ma'lumki, frazeologik birliklar har bir tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi til birligi hisoblanadi va ular til birligi sifatida nutqqa tayyor holda mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular boshqa til birliklari singari semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya va polisemiya kabi hodisalarga uchraydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli otlar bilan yasalgan frazeologik birliklarda semantik jihatdan qiyosiy ?tologik tahlil qilish quyidagi o'xshash vafarqli jihatlarining aniqlanishiga olib keldi:

O'zbek va ingliz tili frazeologik birliklarining semantik jihatdan o'xshashliklari haqida so'z yuritganda, har ikki tilda ham mavjud frazeologik birliklar frazeologik sinonimiya, antonimiya, omonimiya va polisemiya kabi hodisalarga uchrashini aytib o'tish joiz.

Shuningdek, o'zbek tilida ham ingliz tilida ham omonimik frazeologik birliklarning leksik tarkibi ikki xil bo'lishi aniqlandi. Birinchi turda har ikki frazeologik birlik tarkibidagi bir komponent omonim bo'ladi, boshqa bir komponent esa ayni bir so'zning o'zi bo'ladi. Ikkinchi xilda esa, har ikki frazeologik birliklar tarkibidagi barcha komponentlar bir xil so'zlardan tashkil topadi. Qolaversa, o'zbek tilida ham ingliz tilida ham tarkibida atoqli otlar mavjud bo'lgan frazeologizmlar o'rtasida haligacha frazeologik omonimiya hodisasiga misollar ko'zga tashlanmagan.

Yana bir o'xshashlik sifatida shuni aytib o'tish kerakki, o'zbek tilida ham ingliz tilida ham frazeologik variantdoshlik hodisasi frazeologik sinonimiya hodisasini yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Har ikki tilda ham frazeologik variantdoshlik hodisasiga atoqli otlar bilan yasalgan frazeologik birliklarni uchratish mumkin. (O'zbek tilida "Daqqi Yunusdan qolgan" va "Daqyonusdan qolgan" FB'lari, ingliz tilida "Adam's ale" va "Adam's wine" FB'lari)

O'zbek va ingliz tilida mavjud bo'lgan FB'larning semantik o'xshashliklariga yana bir misol frazeologik antonimiya hodisasi bilan bog'liq. O'zbek tilida ham ingliz tilida ham antonimiyani belgilash, bir tomondan frazeologik birliklarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, yana bir tomondan polisemiya hodisasida bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordam beradi. Bundan tashqari har ikki tilda ham frazeologik antonimiya iboralarining sinonimlarini belgilashda ham o'z o'rniga ega.

Frazeologizmlarning semantik o'xshashliklari qatoriga o'zbek tilida ham ingliz tilida ham frazeologik polisemiya hodisasida ma'nolar o'rtasida bog'liqlik bo'lishi sharti mavjud bo'lib, ushbu shart frazeologik polisemiya va frazeologik omonimiya hodisalarini bir-biridan farqlashga yordamlashadi.

O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning, jumladan atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarning semantik jihatdan farqlari haqida gapirganda, avvalombor shuni aytish lozimki, o'zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda frazeologik birliklarning ma'no jihatdan ikki turi borligi ko'rsatiladi: 1) frazeologik butunlik; 2) frazeologik chatishma. [1,2007] Frazeologik butunlik - ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ma'no ifodalaydigan frazeologik birliklar hisoblanadi: belni bog'lamoq, yog' tushsa yalagudek. Frazeologik chatishma - ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazeologik birliklar hisoblanadi: xamir uchidan patir, oyog'i olti qo'li yetti bo'lib;

Ingliz tilida ham frazeologik birliklar ma'no jihatiga ko'ra turlarga ajratilgan, ammo o'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida frazeologik birliklarning uch turi borligi ko'rsatilgan:

- 1) frazeologik birlik (phraseological unity);
- 2) frazeologik chatishma (phraseological fusions);
- 3) frazeologik qo'shilma (phraseological combinations or collocations). [2,2005]

Frazeologik birliklarning bu ma'no turlarini o'zbek tili bilan qiyoslaganda frazeologik birliklar (phraseological unities) va frazeologik chatishmalar (phraseological fusions) o'zbek tilida ham o'z aksini topgan. Lekin frazeologik qo'shilmalar (phraseological combinations or collocations) o'zbek tilida ma'no guruhlari orasiga kiritilmagan bo'lsada, ular ba'zida frazeologik butunliklar ma'noviy guruhiga ham kiritiladi. Bundan tashqari, ularning



ba'zilar erkin bog'lanmalarga ham kiritiladi. Masalan, "to give a talk", "to gain victory", "to attain success", "to make a report" kabilar ingliz tilida frazeologik birliklarning ma'no turlariga ko'ra guruhlariga kiritilsa, o'zbek tilida esa erkin bog'lanmalarga kiritiladi.

Yana bir ko'zga ko'rinarli farqli jihat, frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularda frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya va frazeologik omonimiya kabi hodisalar o'zbek tilida keng tadqiq qilingan. Ingliz tilida esa bu hodisalarning o'rganilishi nisbatan umumiy leksikologiya tarkibida o'rganilib, ular so'zlarga nisbatan kamroq uchraydi.

E'tiborli farqlardan biri sifatida o'zbek tilida frazeologik birliklarning polisemiya uchrasini ya'ni ularning ma'no taraqqiyoti natijasida ko'p ma'noga ega bo'lishi ingliz tilidagiga nisbatan ko'proq hisoblanadi. Ammo atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarda bu holatning aksini, ya'ni ingliz tilida o'zbek tilidagiga qaraganda ko'pligi kuzatildi. Sababi esa o'zbek tilida atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarning sanoqli darajada ekanligi bilan ko'rsatildi. Semantik farqlarga to'xtalganimizda frazeologik polisemiya hodisasiga e'tiborimizni qaratmasdan ilojimiz yo'q. Ma'lumki, polisemiya har bir tilda o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham alohida o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bilan birga, ularning farqli jihatlari ham bor. O'zbek tilida polisemiya ingliz tilidan farqli ravishda ikki turga bo'linadi:

- 1) Grammatik polisemiya
- 2) Lug'aviy polisemiya;

Lug'aviy polisemiya - lug'aviy birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi, ya'ni mustaqil so'zlardagi ko'p ma'nolilik hodisasi. Masalan, joy, qo'l so'zlaridagi polisemiya hodisasi. Ingliz tilida ham bu hodisa mavjud bo'lsada, ammo o'zbek tilidagidek muayyan guruhga ajratilmagan. Grammatik polisemiya - grammatik birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi. Masalan, -ga qo'shimchasi birinchidan yo'nalganlik, ikkinchidan atalganlik ma'nolarini bildiradi: Ukamga tikildim. Ukamga oldim.

Ingliz tilida ham bu hodisa mavjud bo'lib, u faqatgina qo'shimchalardagi ko'p ma'nolilik bo'lib hisoblanadi. Masalan, -er suffiksi kasb egasi (teacher, painter), jihoz, asbob (boiler, eraser) larni anglatuvchi so'zlarga qo'shilib polisemantik affiksga aylangan.

Shuningdek, polisemantik so'zlarning ma'nosi yuzaga chiqishi uchun kontekst muhim ahamiyatga ega. Chunki polisemantik so'zlar bir qancha leksik ma'nolarga ega bo'lib, kontekstda esa u faqat bir ma'nosi bilan qatnashadi. Ingliz tilida o'zbek tilidan farqli ravishda polisemantik so'zning ma'nosini aniqlashtiruvchi kontekstlar uchga: leksik kontekst; grammatik kontekst va ekstralingvistik kontekst bo'linadi hamda ushbu kontekst turlari ibora ma'nosini yanada yaqqolroq ko'rinishida xizmat qiladi.

Shunday qilib, ikkala tilda ham frazeologik birliklar, jumladan tarkibida atoqli otlar mavjud bo'lgan frazeologizmlarning va ular o'rtasida semantik jihatlarining o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Ammo ikkala tilda ham umumiylik frazeologizmlarning semantik xususiyatlari ular uchrovchi frazeologik sinonimiya, omonimiya, antonimiya va polisemiya hodisalari orqali ochib berilishida ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1.Иулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. - Самарқанд: СамДУ, 2007.
- 2.Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. - Дубна: Феникс, 2005.